

Qabul qilindi: 26.07.2024 Chop etildi: 30.08.2024

UO'K: 811.523.133'373:821.222.1.09

**“ZAFARNOMA” ASARINING ESKI O‘ZBEK
ADABIY TILIGA TARJIMASIDAGI HARAKAT
BILDIRUVCHI SO‘ZLARINING SEMANTIK
XUSUSIYATLARI HAQIDA**

**Primov Azamat Iskandarovich, Urganch davlat universiteti
O‘zbek tilshunosligi kafedrasi mudiri, filologiya fanlari
nomzodi, dotsent**

**ON THE SEMANTIC CHARACTERISTICS OF THE
WORDS OF ACTION IN THE TRANSLATION OF
THE WORK "ZAFARNAMA" INTO THE OLD
UZBEK LITERARY LANGUAGE**

**Primov Azamat Iskandarovich, head of the Department of
Uzbek Linguistics at Urgench State University, Candidate of
Philological Sciences, Associate Professor**

**О СЕМАНТИЧЕСКИХ ХАРАКТЕРИСТИКАХ
СЛОВ СО ЗНАЧЕНИЕМ ДЕЙСТВИЯ В
ПЕРЕВОДЕ ПРОИЗВЕДЕНИЯ «ЗАФАР-НАМЕ»
НА СТАРОУЗБЕКСКИЙ ЛИТЕРАТУРНЫЙ
ЯЗЫК**

**Примов Азамат Искандарович, заведующий кафедрой
узбекского языкознания Ургенчского государственного
университета, кандидат филологических наук, доцент**

Annotatsiya. Maqolada Sharafiddin Ali Yazdiyning hijriy 1424–1425-yillarda fors tilida yozib tugallangan “Zafarnoma” asarining Muhammad Ali ibn Darvesh Ali al-Buxoriy tomonidan 1519-yilda eski o‘zbek tiliga qilingan tarjimasidagi harakat bildiruvchi so‘zlarning semantik xususiyatlari, o‘ziga xos qo‘llanish holati, qo‘shma fe‘llar, ko‘makchi fe‘lli so‘z qo‘shilmalarining ma‘noviy-uslubiy xususiyatlari tadqiq qilingan va muhim xulosalar bildirilgan.

Kalit so‘zlar: Sharafuddin Ali Yazdiy, “Zafarnoma” leksikasi, semantika, semantik jarayonlar, sema, polisemantik so‘z, sinkretizm, fe‘l, qo‘shma fe‘l, ko‘makchi fe‘lli so‘z qo‘shilmasi, eski o‘zbek adabiy tili.

Abstract. The article observes the semantic features of action words in the translation of Sharafuddin Ali Yazdi's "Zafarnama", written in Persian in 1424-1425. Compound verbs, semantic and methodological features of phrases are studied and supported with important conclusions.

Key words: Sharafuddin Ali Yazdi, vocabulary of "Zafarnama", semantics, semantic processes, seme, polysemantic word, syncretism, verb, compound verb, conjugation of auxiliary verb, old Uzbek literary language.

Аннотация. В статье рассмотрены семантические особенности слов действия в переводе произведения Шарафуддина Али Язди «Зафарнаме», написанного на персидском языке в 1424-1425 гг. изучены сложные глаголы, семантико-методические особенности словосочетаний со вспомогательными глаголами и сделаны важные выводы.

Ключевые слова: Шарафуддин Али Язди, лексика «Зафарнаме», семантика, семантические процессы, сема, полисемантическое слово, синкретизм, глагол, сложный глагол, спряжение вспомогательного глагола, староузбекский литературный язык.



<https://orcid.org/0000-0003-4243-4248>

e-mail: azamatpir@urdu.uz

KIRISH. Fe'l turkiy tillarning so'z boyligini va o'ziga xosligini ko'rsatib beruvchi asosiy turkumlardan biridir. Qadim til insoniyatning shakl topishi, jamoa bo'lib yashash zaruriyati bilan yaratilgan. Jamoadagilardan biri ikkinchisini, boshqasini o'z amaliyotiga qo'shilishini, birlashishini istasa, unga ushbu amaliyotga undash zarurati sezilgan. Shunda u o'sha amaliyot kechimida yuzaga kelishi asosiy belgi hisoblangan tovushni buyruq ohangida tinglovchiga xitob qilgan. Voqelik kechimidagi yuzaga kelgan tovush kompleksi uning asosiy, muhim belgisi bo'lganligi uchun ham, shu doiradagi munosabat chog'ida jamoaning ko'pchiligi tomonidan qo'llanib ketgan va turkiylarda tub fe'l holida shakllanib qolgan[14]. Keyinchalik bu holat turkiy tillardagi harakat bildiruvchi so'zlarning semantik xususiyatlarining rang-barang bo'lishi, sinkretizmning kuchayishi, qo'shma fe'l va ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmalarining tilda turli ma'no qirralarini ifodalash ehtiyoji sababli paydo bo'lganini ko'rsatadi. Ayniqsa, eski o'zbek adabiy tilidagi fe'l turkumiga oid so'zlar o'zining turfa semantik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ushbu jarayonlar Sharafiddin Ali Yazdiyning hijriy 1424–1425-yillarda fors tilida yozib tugallangan “Zafarnoma” asarining Muhammad Ali ibn Darvesh Ali al-Buxoriy tomonidan 1519-yilda eski o'zbek tiliga qilingan tarjimasidagi harakat bildiruvchi so'zlar misolida tahlil qilish muhim ma'lumotlarni beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Turkologiyada fe'l turkumi bo'yicha juda ko'p ishlar qilingan. O'zbek tilshunosligining o'zida fe'lga xos barcha grammatik kategoriyalar bo'yicha, shuningdek, barcha funksional formalar bo'yicha nomzodlik dissertatsiyalari himoya qilingan. Ayrim kategoriyalar bo'yicha, hatto, birdan ortiq dissertatsiyalar bajarilgan.

Fe'l turkumining ishlanishiga Y.D.Polivanov, A.N.Kononov, V.V.Reshetov, A.M.Shcherbak, S.M.Ivanov, A.Koklyanova kabi olimlar, o'zbek tilshunoslaridan A.G'ulomov, A.H.Sulaymonov,

A.Hojiyev, J.Jo'rayeva, Sh.Shukurov, G.Sh.Sharipov, S.A.Akbarov, E.Fozilov, R.Jumaniyozov, M.Shohnazarova va boshqa taniqli olimlar o'zlarining katta hissalarini qo'shganlar.

A.Hojiyev o'z monografiyasida fe'l turkumida hali to'la hal etilmagan, munozarali masalalar, mohiyati yetarli ochilmagan hodisalar anchagina borligi, fe'l turkumiga oid barcha hodisalarning mohiyatini har tomonlama to'la bayon etish, ularning kelib chiqish asosini va o'ziga aloqador hodisalarga munosabatini to'la ochib berish juda katta hajmni talab etishi haqida yozadi[1].

M.Sodiqovanning “Fe'l stilistikasi” kitobida fe'llarning semantik gruppasi qisqartirib berilgan, fe'lning semantik strukturasi va shu bilan bog'langan stilistik aspektlari analiz qilingan bo'limida faqat birgina “chiqmoq” fe'lining semantik-stilistik doirasi yoritiladi, xolos[2].

“Zafarnoma” leksikasida harakat bildiruvchi so'zlar original qo'llanishlarga ega. H.Dadaboyevning “Zafarnoma”ning eski o'zbekcha tarjimasida qo'llangan *tärt*[13] tarkibli qo'shma fe'l-leksemalar semantikasi xususida” maqolasida asarda keng ishlatilgan *tärt*= fe'li qatnashgan qo'shma fe'l-leksemalarning ma'no strukturasi, o'ziga xos semantik nozikliklariga diqqat qaratadi.

MUHOKAMA. Asar matnida “qilmoq” ma'nosida *ishlä* so'zi ko'p qo'llanilgan: Davlati ko'b mundoq *ishlä*, *ishlädi* va *ishläyäj*, Kim bu ishlar davlati bir namudori erur (40-b).

Alisher Navoiy *tušur* so'zining uch ma'nosi borligi haqida yozadi¹. “Zafarnoma”da uning o'nga yaqin semasi borligi kuzatildi. Masalan: *Va ul kecha alarni eviga tušurub mehmondorliq qildi* (17-b).

Alisher Navoiy: “Yana yeyiladigan ovqatni *yegulik* deyдилar. Sart elining ko'pi, balki barchasi yemakni ham, ichmakni ham *xo'rdan* so'zi bilan aytadilar²”,– deganidek, “Zafarnoma” leksikasida “ovqat” ma'nosida *yemak*, “suyuqlik” ma'nosida *ichmak* so'zi ishlatilgan: *Yemäk yedilar, jom bo'ldi ravon, Mug'anniy ko'tardi xurushu fig'on* (13 a);

¹ Алишер Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн (С.Ҳасанов масъул муҳаррирлигида).– Тошкент: Тафаккур, 2014.– Б.20.

² Алишер Навоий. Муҳокамату-л-луғатайн (Қ.Содиқов таҳлили, табдили ва талқини остида).– Тошкент: Академнашр, 2017.– Б.67.

...hargiz bu shuru ishgakim, munohi turur, mayl qilmadi va **ičmāk** sori mayl qilmadi (4-b)... Bu o‘rinda yemāk va **ičmāk** harakat nomi shakllari ot vazifasini bajaryapti.

Ič fe‘li turli ma‘nolarda kelgan: *Anda taom va sharob ičib, yana otlanib, Qaro Buloq mavze‘ida tushti* (220-b). *Beklar Xizr Xoja O‘g‘lon bilan ont ičib yarashtilar* (114-b).

Qopār= so‘zi “yer bag‘ridan sug‘urib olmoq” ma‘nosini anglatadi. Qadimgi turkiy tilda ham shunday ma‘noni anglatgan bu so‘z “ko‘tarilmoq”, “tik turmoq” ma‘nosini anglatuvchi *qop* fe‘liga *-(u)r* orttirma qo‘shimchasini qo‘shib hosil qilingan: *qop + ur = qopur*³. Qadimgi turkiy tildayoq bu so‘z *qopar*= tarzida ham talaffuz qilingan; o‘zbek tiliga ana shu shakli a unlisi o unlisiga almashgan holatda yetib kelgan: *qopur → qopar → qopār*⁴.

Bizningcha, “xalta” so‘zining sinonimi bo‘lgan *qāp* leksemasi, Xorazm shevalaridagi *qāpčī* (ilib ol), *qāpmāq* (tishlamoq), *qāpqāq*, *qāpi* (eshik) leksemalarining barchasi tarixan *qop* asosiga borib taqaladi, asosning o‘zi esa “tik turmoq” ma‘nosidan tashqari, “qopmoq”, ya‘ni “biror narsaning orasiga olmoq”, “ushlab tortmoq”, “yopmoq” ma‘nolariga aloqador deb o‘ylaymiz.

“Zafarnoma”da *qobmāq* leksemasiam polisemantik so‘zlar sirasidan o‘rin olgan: Agar bu qal‘a eshikidin *qobsāk*, el xayol qilg‘aykim, qal‘ani ola olmay *qobtuk* (237-b). Mazkur misolda *qobmāq* so‘zi “ketmoq”, “siljimoq” ma‘nosini ifodalaydi. Xorazm shevalarida hozir ham *qopdī*, *qopīb tučdī*, *qopčīdī* fe‘llari mavjud bo‘lib, “siljimoq”, “ko‘chib tushmoq” ma‘nosini bildiradi⁵.

Navoiy asarlari tilida ham *qopār*= so‘zi 1) “ko‘tarmoq”, “qo‘zg‘atmoq”, “turg‘izmoq”, “tiriltirmoq”⁶:

Labing malohati yavvā qopārđi olamdin,

Shakarni bo‘yla kishi hayda ko‘rdi sho‘rangez.

Tengri taolo kufroni ne‘mat qilg‘anlarni va‘da qilg‘an dastur bila to‘ng‘uz shakli bila o‘runlaridin qopārđi.

2) “ag‘darmoq”, “buzmoq”:

Pand ila sabrim uyin, ey aql, ma‘mur istama,

Qim qopārmīš ko‘z yoshim sayli ani bunyodidin.

“Zafarnoma”da *qopār* so‘zi “qurmoq”, “bunyod qilmoq” ma‘nolarini ham ifodalagan: *Va o‘lgan kishilarning boshlaridin minoralar qopārđilar* (87-b). *Bu o‘rinda qopārđilar “qurdilar” degani. Va ul ko‘frukni andoq yasab tururlarkim, olam ichida hech kishi andoqni ko‘rmay turur, va barchani tosh bila qopārđib tururlar* (95-b). Ushbu misolda ham ko‘prikning toshdan *qo‘porilgani* – qurilgani aytilmoqda.

Quyidagi matndagi birinchi misol (qo‘porib) “qurmoq” ma‘nosini, ikkinchi (*qopārā ālyāylār*) va uchinchi (*qopāra ālmādilār*) misollarda “buzmoq” ma‘nosini bildiradi: Farmon bo‘ldikim, “Van qal‘asini buzsunlar!” Va ul qal‘ani bino qilg‘on Shaddodi Od erdikim, tog‘ ustida tosh va ganch bila *qo‘porib* erdilar. Va har bir toshi bir tog‘dek va andog‘ berk erdikim, Yodgor Andxudiykim, tuman beklaridin erdi va o‘zga beklar navkarlari bila har necha qildilarkim, bir tosh andin *qopārā ālyāylār*, ul qal‘adin bir toshni *qopāra ālmādilār*. Demak, yuqoridagi misoldagi *qopārmoq* so‘zi orqali lisoniy enantiosemiya hodisasi kuzatilyapti. N.Mahmudov va Y.Odilovlar *qopārmoq* so‘zining diaxronik enantiosemiya hosil qilganini e‘tibordan chetda qoldirmaganlar⁷.

Shu o‘rinda yana bir narsani ta‘kidlash kerakki Xorazm shevalarida *qopārmoq* so‘zi “ildizmevali sabzavotlarni kovlab olish” ma‘nosida *gāšīr qopārmoq*, *turp qopārmoq* kabi birikmalar tarkibida qo‘llanadi. Shuningdek, bu so‘z “o‘simliklar, daraxtlarni ildizi bilan kovlab yoki sug‘urib olish” ma‘nosini ham anglatadi: *ōlāñ qopārmoq*, *kōtkā qopārmoq* kabi. Xorazm shevalarida gaplashuvchi

³ ПДП, 414; Девон, II, 75; ДС, 457

⁴ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. 1-жилд. – Тошкент: Университет, 2003. – Б.588

⁵ Абдуллаев Ф. Ўзбек тилининг Хоразм шевалари. – Тошкент: Ўзбекистон ССР Фанлар академияси нашриёти, 1961. – Б.62.

⁶ Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Тўрт жилдли. –Тошкент: Фан, 1983-1985. – 4-жилд, 1985. – 91 б.

⁷ Маҳмудов Н. Одиллов Ё. Сўз маъно тараққиётида зиддият. Ўзбек тили энантиосемик сўзларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2014. – Б.275.

katta avlod tilida *qopármog* soʻzi “jinsiy aloqa qilmoq”, “yaxshigina ulushini olmoq” maʼnolarida ham ishlatiladi.

NATIJA. “Taʼzim qil=”, “sajda qil=”, “iltijo qil=” maʼnosidagi *júkkún*= feʼli qadimgi turkiy tilda “toʻplamoq” maʼnosini anglatgan *yúk*= feʼlining⁸ “buk” maʼnosidan “oʻzlik” maʼnosini ifodalovchi - (y) n qoʻshimchasi bilan hosil qilingan boʻlsa kerak; oʻzbek tilida *y* unlilarining yumshoqlik belgisi yoʻqolgan: *yúk + yn = yúkyn → yukun*⁹. Misol: barcha kelib yukunub hazrat bila koʻrushtilar. (253-b). Kuzatishimizcha, *júk, júksák, júksál* soʻzlari ham “toʻplamoq” maʼnosidagi *yuk* asosi bilan bogʻliq. Alisher Navoiy asarlarida bu soʻz yoʻq.

Kijur feʼli “kiritmoq” maʼnosini anglatadi: *Va beklar ani sohibqiron qoshigʻa kijurdilar* (273 -b). Ushbu feʼl quyidagi maʼnolarni ham bildiradi:

“Kiydirmoq” maʼnosi: ...*sharbat va taom berib, jarohatigʻa malham qoʻydi va bosh-ayoq kijurdirdi va andin koʻchub, sohibqiron sori yondi* (71-b).

“Olmoq”, “uylanmoq”: *Tuman ogʻokim, Musabekning qizi erdi, shariʼat tariqasi bilan nikohida kijurdi* (74-b).

“Voqelikka aylanmoq” maʼnosini anglatuvchi boʻl feʼlining oʻl shaklidan boʻl→ voʻl→ oʻl shakllaridan *öldi* shakli kelib chiqqan. Mazkur soʻz bogʻlama vazifasini bajarib kelgan.

Xurram kishidurki, gʻam ila yor öldi,

Kom tobtı kishiki, dahr aro kor etti,

Oy kecha bila yarashti, boʻldi anga nur,

Is tobtı gul chu hamdami xor öldi (130-a).

“Izzat-ikrom qil” maʼnosini bildiruvchi *sijlä* soʻzi qadimgi turkiy tilda mavjud boʻlib, “sovgʻa”, “mukofot” maʼnosini anglatgan *siy* otidan eski oʻzbek tilida -la qoʻshimchasi bilan yasalgan (*siy oti*, masalan, qirgʻiz tilida hozir ham mavjud¹⁰). Misol: *Sohibqirongʻa kelib soʻzlarini arz qilgʻandin soʻng*

kelgan elchilargʻa toʻnlar kiydurub, sijläb yibardi (243-a). Xorazm shevalarida hozir ham *sij, sij-izzät* soʻzlari “hurmat”, “hurmat-eʼtibor” maʼnosini ifodalash uchun qoʻllanadi.

Äjir soʻzi oldinda turuvchi *äč* morfemaning oʻzidan keyinda turgan yir morfemasi bilan yaxlitlanishi asosida soddalashgandir: *ach+yir→ayir*. Bu soʻz asar tilida bir marta qoʻllangan:

Agar boʻlsa olam toʻla tigʻu tir,

Chu taqdir emas andin äjirmas gʻami (15a).

“Zafarnoma”da *berkütmaq* soʻzi ham koʻp maʼnoli: 1) “Yopmoq, toʻsmaq”: *Va alar hisor ichida kirib darvozalarni berküttilar* (74-b) 2) “qamamoq, zindonga solmoq, bandi qilmoq”: *Yusuf Soʻfiy elchini tutub berkütü* (85-b). Asarda *berkitmoq* soʻzining hozirgi oʻzbek tilidagi “yashirmoq” maʼnosi uchramaydi.

XULOSA. “Zafarnoma”ning eski oʻzbek tiliga qilingan tarjimasida matnidagi harakat bildiruvchi soʻzlarning aksariyati polisemantiklik xususiyatiga ega, asardagi feʼl-leksemalarning koʻp maʼnolilik doirasi namoyon boʻlgan. Albatta, ushbu jihat bir tomondan eski oʻzbek adabiy tili imkoniyatlarining oʻta kengligi, ikkinchi tomondan Muhammad Ali Buxoriyning ona tili boyliklaridan ustalik bilan foydalanish mahoratidan guvohlik beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

- [1] Хожиев А. Фёъл. – Тошкент: 1973 – Б.3.
- [2] Содиқова М. Фёъл стилистикаси. Ўзбекистон ССР „Фан“ нашриёти, Тошкент—1975.- Б.97
- [3] Muhammad Ali Buxoriy tarjimasidagi “Zafarnoma” asarining Turkiyaning Istanbul shahridagi Nuri Usmoniya kutubxonasida 2796-inventar raqam (avval 3268-raqamda boʻlgan) bilan saqlanadigan yagona qoʻlyozma nusxasi.
- [4] Алишер Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн (С.Ҳасанов масъул муҳаррирлигида).– Тошкент: Тафаккур, 2014.– Б.20.

⁸ Древнетюркский словарь. – Л., 1969. – С.285.

⁹ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. Икки жилдли. – Тошкент: Университет, 2000. 1-жилд. – Б.183.

¹⁰ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. Икки жилдли. – Тошкент: Университет, 2000. 1-жилд. – Б.285.

- [5] Алишер Навоий. Муҳокамату-л-луғатайн (Қ.Содиқов таҳлили, табдили ва талқини остида).– Тошкент: Академнашр, 2017.– Б.67.
- [6] ПДП, 414; Девон, II, 75; ДС, 457
- [7] Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. 1-жилд. – Тошкент: Университет,2003. – Б.588
- [8] Абдуллаев Ф. Ўзбек тилининг Хоразм шевалари. – Тошкент: Ўзбекистон ССР Фанлар академияси нашриёти, 1961. – Б.62.
- [9] Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Тўрт жилдли. –Тошкент: Фан, 1983-1985. – 4-жилд. 1985. – 91 б.
- [10] Маҳмудов Н. Одилов Ё. Сўз маъно тараққиётида зиддият. Ўзбек тили энантиосемик сўзларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2014. – Б.275.
- [11] Древнетюркский словарь. – Л., 1969. – С.285.
- [12] Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. Икки жилдли. – Тошкент: Университет, 2000. 1-жилд. – Б.183.
- [13] Transkrision belgilar bilan tanishish uchun quyidagi havolaga kiriladi: https://www.researchgate.net/publication/354474049_TRANSKRIPSIYA_VA_DIAKRITIK_BELGILAR
- [14] Миртожиев М. Туркий туб сўзлар тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2017. – Б.107.

